

Bilasizmi? «Triada» haykalchalari

«Triada» (Budda rohiblar bilan) haykali Surxondaryo viloyati Fayoztepa buddaviylik ibodatxonasidan topilgan bo'lib, milodiy I-II asrlarga tegishli.



Bodhi muqaddas daraxti ostida o'yga to'lgan holda o'tirgan va ikki yonida ikkita turgan rohib tasvirlangan Budda haykali. Korinf ustunlari ko'tarib turgan yoysimon arka tagida joylashgan bo'lib, haykal sarg'imir-oq rangdagi yaxlit ohaktosh bo'lagidan o'yib ishlangan, dastlab zarhal bilan qoplangan. Fayoztepa ibodatxonasi majmuasida 1970-yillarda olib borilgan qazish ishlari davomida arxeolog olim L.I.Albaum tomonidan topilgan. Yodgorlik eski Termiz shahristonining g'arbiy qismida joylashgan. U to'g'riburchakli bino va alohida turgan stupadan iborat. Bino xom g'isht va paxsadan qurilib, devorlari somonli loy bilan suvalgan va oqlangan. Ibodatxona hovlisi va binolari devorlari rangli suratlar — Budda, sovg'a-salom keltiruvchilarning qiyofalari va boshqa muayyan ko'rinishli tasvirlar bilan bezatilgan. Ibodatxonada topilgan ashyolar va devoriy suratlar eng qadimiylardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, yodgorlikda qayta ta'mirlangan Bodhisatva haykali bo'laklari, diniy afsonalar bilan bog'liq devoriy rangli tasvirlar, yozuvli sopol idish bo'laklari va buddaviylik diniga oid boshqa marosim buyumlari ham topilgan.

Hozirda «Triada» (Budda rohiblar bilan) haykali O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyida saqlanadi.